| <b>Qurbonov Jasurbek Pozilovich</b>                                                                                                                             |     |
| LOGISTIK TERMINALLAR FAOLIYATINI EKSPERT BAHOLASH USULI ASOSIDA TADQIQ ETISH.....                                                                               | 357 |
| <b>Zohidov Muhriddin G'ofurjon o'g'li</b>                                                                                                                       |     |
| <b>Jumayev Sherzod Bahrom o'g'li</b>                                                                                                                            |     |
| SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA XIZMATLAR SOHASINING IJTIMOIIQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA HUDUDIIY TAFOVUTLAR DARAJASI.....                                          | 367 |
| <b>Boboqulov Sanjar Baxronkulovich</b>                                                                                                                          |     |
| <b>Sherzodova Diyora Sherzod qizi</b>                                                                                                                           |     |
| QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIQTISODIY OMILLARNING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI STATISTIK BAHOLASH .....                                                    | 373 |
| <b>Maxmatqulova Hikoyat G'iyosiddin qizi</b>                                                                                                                    |     |
| DIGITAL NOMADS AND THE CHANGING FACE OF GLOBAL TOURISM .....                                                                                                    | 379 |
| <b>Sirojiddinova Shahrizoda Davronovna</b>                                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....                                                  | 385 |
| <b>Sharipov Tohir Miraximovich</b>                                                                                                                              |     |
| URGANCH JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARINING MURAKKABLIK DARAJASINI BAHOLASH USLUBI .....                                                                        | 390 |
| <b>Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi</b>                                                                                                                   |     |
| AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINI KORXONANI HAYOTIIY AYLANISH BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBNING MOHIYATI .....                                | 395 |
| <b>Muydinov Erkin Djamaldinovich</b>                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHDA<br>KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI .....                                             | 399 |
| <b>Raximov Jo'rabek Raximovich</b>                                                                                                                          |     |
| MINTAQQA IQTISODIYOTINI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....                                                                                 | 405 |
| <b>Mahmatrayimov Shahzod</b>                                                                                                                                |     |
| HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARIDA RAHBAR KADRLAR<br>SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                            | 410 |
| <b>Bekchanov Davron Masharipovich</b>                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA KO'P VEKTORLILIK: XITOIY, ROSSIYA<br>VA G'ARB O'RTASIDA MUVOZANATNI TA'MINLASH STRATEGIYASI .....                             | 419 |
| <b>Omonova Maxliyo</b>                                                                                                                                      |     |
| <b>Haydarova Malika</b>                                                                                                                                     |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-USLUBIY<br>ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....                                            | 423 |
| <b>Djalalova Durdona Dilshodbekovna</b>                                                                                                                     |     |
| QURILISHDAGI IQTISODIY TEJAMKORLIK ASOSIDA LEGO G'ISHT<br>MATERIALLARINI TAHLIL QILISH .....                                                                | 427 |
| <b>Askarov Xasanjon</b>                                                                                                                                     |     |
| RIVOJLANGAN DAVLATLARDA YER VA SUV RESURSLARINI<br>INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISH TAJRIBASI .....                                                           | 432 |
| <b>Matkarimov Mansur</b>                                                                                                                                    |     |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION RIVOJLANISH<br>TENDENSIYALARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....                                                     | 439 |
| <b>Madrakhimov Kakhramon</b>                                                                                                                                |     |
| <b>Vaisov Dilshod Ibodullayevich</b>                                                                                                                        |     |
| THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE GLOBAL LABOR MARKET.....                                                                                       | 445 |
| <b>Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna</b>                                                                                                                    |     |
| <b>Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna</b>                                                                                                                       |     |
| ROBOTLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI: ISH O'RINLARINING<br>QISQARISHI YOKI YANGI KASBLAR TRANSFORMATSIYASI.....                                      | 451 |
| <b>Usmonov Farrux Furqatovich</b>                                                                                                                           |     |
| <b>Azimov Mirsaid Salimovich</b>                                                                                                                            |     |
| TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA NOTARIF CHORALARNI QO'LLASHDA<br>XAVFNI BOSHQARISH TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....                                           | 456 |
| <b>Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li</b>                                                                                                                     |     |
| EXAMINING LEADERSHIP DIFFERENCES BETWEEN<br>FEMALE AND MALE MANAGERS.....                                                                                   | 460 |
| <b>Dilafruz Kuchkorova</b>                                                                                                                                  |     |
| ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR<br>HISOBINI MHXS (MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTI)<br>TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ..... | 468 |
| <b>Abdimurodov Baxrom Ochilovich</b>                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                                     | 473 |
| <b>Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi</b>                                                                                                                   |     |
| HUDUDLARDA TURIZMNI IMMERSIV TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING<br>TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                            | 477 |
| <b>Kasimova Yulduz Baxtiyorovna</b>                                                                                                                         |     |
| DAVLAT TIBBIY SUG'URTASIDA STRATEGIK XARID: PASSIV<br>MOLIYALASHTIRISHDAN STRATEGIK XARIDGA O'TISHNING NAZARIY ASOSLARI.....                                | 485 |
| <b>Kilichev Fazliddin Usmanovich</b>                                                                                                                        |     |
| ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА В<br>РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА .....                                                                        | 493 |
| <b>Шадманова Мадинахон Омонулла кизи</b>                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                               |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ОТ УПРАВЛЕНИЯ МЕРОПРИЯТИЯМИ К УПРАВЛЕНИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ: DATA-INFORMED МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕАУДИТОРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УНИВЕРСИТЕТАХ УЗБЕКИСТАНА..... | 501 |
| <b>Сабилов Алишер Саибович</b>                                                                                                                                |     |
| ИЗУЧЕНИЕ БЮДЖЕТИРОВАНИЯ И КОНТРОЛЯ В ПРОЦЕССЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА В ООО «SATURN METAL» .....                                                                | 509 |
| <b>Мусаева Шоира Азимовна</b>                                                                                                                                 |     |
| О'ZBEKISTON IQLIM SHAROITIDA DONADOR O'G'ITLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                | 518 |
| <b>Boltayev Baxriddin</b>                                                                                                                                     |     |
| О'ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY TURIZM TALABLARIGA MOS TURISTIK RESURSLAR SALOHİYATI .....                                                                   | 525 |
| <b>Suyunov Alijon</b>                                                                                                                                         |     |
| BOSHQARUV MEKANIZMLARING RAQOBAT STRATEGIYASI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI.....                                                                                   | 530 |
| <b>Islomov Shuhrat Ma'rufjonovich</b>                                                                                                                         |     |
| <b>Nabiyeva Zumrad Zafarovna</b>                                                                                                                              |     |
| CRM TIZIMINING NAZARIY-ASOSIY TAMOIYILLARI VA ULGURJI SAVDODA ROLI.....                                                                                       | 536 |
| <b>Islomov Shuhrat Marufjonovich</b>                                                                                                                          |     |
| <b>Raimova Diyora Botirovna</b>                                                                                                                               |     |
| INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE TRANSFORMATIONAL MODEL OF THE DIGITAL ECONOMY UNDER GLOBALIZATION .....                                                      | 541 |
| <b>Abruyeva Xilola Sherbekovna</b>                                                                                                                            |     |
| DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA RAHBAR KADRLAR TAYYORLASHDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI .....                                                     | 551 |
| <b>Xurshida Maxmadaminova</b>                                                                                                                                 |     |
| EKOLOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI BIOIQTISODIYOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH .....                                                                                   | 556 |
| <b>Odiljonov Turotjon Erkinjon o'g'li</b>                                                                                                                     |     |



# EKOLOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI BIOIQTISODIYOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH



**Odiljonov Turojjon Erkinjon o'g'li**  
**Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)**  
**“Sirkulyar iqtisodiyot” mutaxassisligi magistranti**  
**Ilmiy rahbar: Shuhrat Abdulazizov Abdulazizovich**  
**Ilmiy innovatsiyalar bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. (PhD)**  
**ORCID: 0009-0006-2734-8981**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bioiqtisodiyot tizimini rivojlantirishda ekologik innovatsiyalarning o'rni, rivojlangan davlatlar tajribasi hamda O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinadi. Bioiqtisodiyot biologik resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi xomashyo asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Finlandiya va AQSh tajribasi asosida bioiqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** bioiqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar, yashil iqtisodiyot, biomassa, bioenergetika, barqaror rivojlanish, ekologik texnologiyalar.

**Abstract.** This article examines the role of environmental innovations in the development of the bioeconomy, the experience of developed countries, and promising directions for Uzbekistan. The bioeconomy contributes to the efficient use of biological resources, the production of high-value-added products from renewable raw materials, and the reduction of adverse environmental impacts. The article also discusses mechanisms for developing the bioeconomy based on the experience of the European Union, Germany, Finland, and the United States.

**Keywords:** bioeconomy, environmental innovation, green economy, biomass, bioenergy, sustainable development, environmental technologies.

**Аннотация.** В статье анализируются роль экологических инноваций в развитии биоэкономики, опыт развитых стран и перспективные направления для Узбекистана. Биоэкономика способствует эффективному использованию биологических ресурсов, производству продукции с высокой добавленной стоимостью на основе возобновляемого сырья и снижению негативного воздействия на окружающую среду. В статье также рассмотрены механизмы развития биоэкономики на основе опыта Европейского союза, Германии, Финляндии и США.

**Ключевые слова:** биоэкономика, экологические инновации, зелёная экономика, биомасса, биоэнергетика, устойчивое развитие, экологические технологии.

## KIRISH

Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning kuchayishi dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirishga undamoqda. Ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri bioiqtisodiyot hisoblanadi. Bioiqtisodiyot biologik resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga asoslanadi.

Ekologik innovatsiyalar bioiqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi omili bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, biologik xomashyodan yangi mahsulotlar yaratish hamda uglerod chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bioiqtisodiyot ilmiy adabiyotlarda biologik resurslardan samarali va barqaror foydalanish, qayta tiklanuvchi xomashyo asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hamda iqtisodiy o'sishni ekologik manfaatlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan tizim sifatida talqin qilinadi. OECD tadqiqotlarida biotexnologiyalar va innovatsiyalar bioiqtisodiyot rivojining muhim omillari sifatida ko'rsatilgan.

Yevropa Komissiyasi va FAO materiallarida bioiqtisodiyotni rivojlantirishda biologik chiqindilarni qayta ishlash, aylanma ishlab chiqarishni kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslarga tushadigan bosimni kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va davlat-xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida baholanadi.

Germaniya, Finlandiya va AQSh tajribasi bioenergetika, biomateriallar, biofarmatsevtika va sintetik biologiyani rivojlantirishda ilmiy markazlar, universitetlar va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligi muhim ekanini ko'rsatadi. Ushbu tajribalar O'zbekistonda qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash, biogaz ishlab chiqarish va ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bioiqtisodiyot va ekologik innovatsiyalarga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, xorijiy davlatlarning strategik hujjatlari hamda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga oid normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil asosida Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Finlandiya va AQSh tajribalarining umumiy hamda o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Olingan natijalar O'zbekistonning qishloq xo'jaligi, tabiiy resurslari va iqtisodiy imkoniyatlari bilan taqqoslanib, bioenergetika, chiqindilarni qayta ishlash, biomateriallar ishlab chiqarish va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bioiqtisodiyotning nazariy asoslari

Bioiqtisodiyot — biologik resurslar, biotexnologiyalar va ilmiy innovatsiyalar asosida iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga qaratilgan tizimdir. Uning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- qayta tiklanuvchi resurslardan samarali foydalanish;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- ekologik barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish;
- yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng qo'llash.

Bioiqtisodiyot qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, farmatsevtika, bioenergetika va kimyo sanoatini yagona innovatsion tizimga birlashtiradi.

Xorijiy tajriba

## YEVROPA ITTIFOQI TAJRIBASI

Yevropa Ittifoqi bioiqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Bioiqtisodiyot strategiyasi doirasida ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, biologik chiqindilarni qayta ishlash, bioasosli mahsulotlar ishlab chiqarish va ekologik innovatsiyalarni bozorga olib chiqishga alohida e'tibor qaratilgan. Yevropa Komissiyasining 2018-yilgi ma'lumotiga ko'ra, Yevropa Ittifoqi bioiqtisodiyoti qariyb 18 million kishining bandligini ta'minlagan. Shuningdek, bioasosli tarmoqlarda 2030-yilgacha bir millionga yaqin yangi yashil ish o'rnini yaratish imkoniyati mavjudligi qayd etilgan [1].

Yevropa mamlakatlarida biologik chiqindilarni alohida yig'ish va qayta ishlash, biomassadan energiya olish, bioasosli qadoqlash materiallari ishlab chiqarish hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bioiqtisodiyot siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida rivojlantirilmoqda.

### Germaniya tajribasi

Germaniya bioenergetika va biogaz texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha katta amaliy tajribaga ega. Germaniyaning qayta tiklanuvchi resurslar bo'yicha agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatda biometan ishlab chiqarish obyektlarini hisobga olmaganda, qariyb 8 600 ta biogaz ishlab chiqarish obyekti faoliyat yuritgan. Ularning umumiy o'rnatilgan elektr quvvati taxminan 6,5 GWni tashkil etgan [7].



Mamlakatda biogaz ishlab chiqarishda chorvachilik chiqindilari, go'ng, qishloq xo'jaligi qoldiqlari, energiya ekinlari va biologik chiqindilardan foydalaniladi. Biogazdan elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, biometan olish energiya manbalarini diversifikatsiya qilish hamda chiqindilarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Finlandiya tajribasi

Finlandiya bioiqtisodiyotni milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilagan.

Mamlakatda:

- yog'och chiqindilaridan bioyoqilg'i olinadi;
- selluloza asosida biologik qadoqlash materiallari ishlab chiqariladi;
- o'rmon resurslari raqamli boshqaruv tizimlari orqali nazorat qilinadi.

Finlandiya tajribasi tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik va iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirishning amaliy misollaridan biridir.

### AQSh tajribasi

AQSh bioiqtisodiyotida biotexnologiya, biofarmatsevtika, bioyoqilg'i, gen muhandisligi, sintetik biologiya, biokimyo va bioasosli materiallar ishlab chiqarish muhim o'rin tutadi. AQSh Milliy akademiyalarining tadqiqotida mamlakat bioiqtisodiyoti hayot haqidagi fanlar, biotexnologiya, muhandislik, hisoblash va axborot texnologiyalaridagi ilmiy yutuqlarga asoslangan iqtisodiy faoliyat sifatida tavsiflangan [8].

AQSh Energetika vazirligi tizimida fundamental biologik tadqiqotlardan tortib biotexnologiyalarni tajriba-sanoat miqyosida sinovdan o'tkazishgacha bo'lgan jarayonlar qo'llab-quvvatlanadi. Mazkur faoliyatda 17 ta milliy laboratoriya, universitetlar va xususiy sektor vakillari hamkorlik qiladi. Bunday yondashuv ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish va innovatsion mahsulotlarni bozorga olib chiqishga imkon beradi [9].

### O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalishlar

O'zbekistonda bioiqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Xususan:

- paxta poyasi va g'o'za qoldiqlaridan bioyoqilg'i ishlab chiqarish;
- chorvachilik chiqindilaridan biogaz olish;
- qishloq xo'jaligi chiqindilarini organik o'g'itga aylantirish;
- biologik parchalanadigan qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish;
- suvni tejovchi agroteknologiyalarni joriy etish;
- ekologik yo'nalishdagi innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash.

Shuningdek, universitetlar, ilmiy institutlar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bioiqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologik innovatsiyalar bioiqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, biologik resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, bioenergetikani rivojlantirish va ilmiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi. O'zbekiston uchun ham bioiqtisodiyot yo'nalishini rivojlantirish yashil iqtisodiyotga o'tish, oziq-ovqat va energiya xavfsizligini mustahkamlash hamda xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bioiqtisodiyot tizimini rivojlantirish maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Bioiqtisodiyot bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish.
2. Ekologik innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.
3. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiyalarni oshirish.
4. Qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish.
5. Xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.
6. Yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish.
7. Bioiqtisodiyot sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. European Commission. *A Sustainable Bioeconomy for Europe: Strengthening the Connection between Economy, Society and the Environment*. Communication from the Commission to the European Parliament, the Council, the European Economic and Social Committee and the Committee of the



- Regions. COM(2018) 673 final. — Brussels, 2018. — URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=COM:2018:673:FIN> (murojaat sanasi: 30.07.2026).
2. OECD. *The Bioeconomy to 2030: Designing a Policy Agenda*. — Paris: OECD Publishing, 2009. — 323 p. — DOI: 10.1787/9789264056886-en.
3. Gomez San Juan M., Bogdanski A., Dubois O. *Towards Sustainable Bioeconomy: Lessons Learned from Case Studies*. Environment and Natural Resources Management Working Paper No. 73. — Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2019. — 132 p. — ISBN 978-92-5-131424-1. — URL: <https://openknowledge.fao.org/items/70bac583-f4dd-4b23-838e-8e70e4081d3d> (murojaat sanasi: 30.07.2026).
4. World Bank. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. — Washington, DC: The World Bank, 2012. — 188 p. — ISBN 978-0-8213-9551-6. — URL: <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/6058> (murojaat sanasi: 30.07.2026).
5. Federal Ministry of Education and Research; Federal Ministry of Food and Agriculture. *National Bioeconomy Strategy*. — Berlin: Federal Government of Germany, 2020. — 66 p. — URL: [https://biooekonomie.de/sites/default/files/2021-03/BMBF\\_National\\_Bioeconomy\\_Strategy\\_en\\_barrierfree.pdf](https://biooekonomie.de/sites/default/files/2021-03/BMBF_National_Bioeconomy_Strategy_en_barrierfree.pdf) (murojaat sanasi: 30.07.2026).
6. Finnish Government. *The Finnish Bioeconomy Strategy: Sustainably towards Higher Value Added*. Publications of the Finnish Government, 2022:5. — Helsinki: Finnish Government, 2022. — 53 p. — ISBN 978-952-383-579-5. — ISSN 2490-0966. — URL: <https://julkaisut.valtioneuvosto.fi/bitstreams/0ab34fa0-93c0-412e-99d4-02ad9d3f9341/download> (murojaat sanasi: 30.07.2026).
7. Fachagentur Nachwachsende Rohstoffe e. V. *Basisdaten Bioenergie Deutschland 2024: Diagramme, Tabellen, Kennwerte*. 20. Aufl. — Gülzow-Prüzen: Fachagentur Nachwachsende Rohstoffe e. V., 2023. — 56 S. — URL: [https://www.fnr.de/fileadmin/Projekte/2023/Mediathek/Broschuere\\_Basisdaten\\_Bioenergie\\_2023\\_web.pdf](https://www.fnr.de/fileadmin/Projekte/2023/Mediathek/Broschuere_Basisdaten_Bioenergie_2023_web.pdf) (murojaat sanasi: 30.07.2026).
8. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. *Safeguarding the Bioeconomy*. — Washington, DC: The National Academies Press, 2020. — 392 p. — DOI: 10.17226/25525.
9. U.S. Department of Energy. *Biotechnology* [Elektron resurs]. — URL: <https://www.energy.gov/topics/biotechnology> (murojaat sanasi: 30.07.2026).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/4539502> (murojaat sanasi: 30.07.2026).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/6303230> (murojaat sanasi: 30.07.2026).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 7/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>